

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

URALOVA NIGORA ABDUVALIYEVNA

**O‘ZBEK TILIDA GASTRONOMIK FRAZELOGIK BIRLIKLARNING
LINGVOMADANIY TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Jizzax – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Uralova Nigora Abduvaliyevna

О‘zbek tilida gastronomik frazeologik birliklarning lingvomadaniy tadqiqi..... 3

Уралова Нигора Абдувалиевна

Лингвокультурологическое исследование гастрономических
фразеологических единиц в узбекском языке 19

Uralova Nigora Abduvalievna

Linguistic study of gastronomic phraseological units of the Uzbek language 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 42

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

URALOVA NIGORA ABDUVALIYEVNA

**O‘ZBEK TILIDA GASTRONOMIK FRAZELOGIK BIRLIKLARNING
LINGVOMADANIY TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Jizzax – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.1.PHD/Fil3065 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasi (jdpu.uz)da va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Mamatov Abdug'afur Eshonqulovich filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Jo'rayeva Bibish Muxsinovna filologiya fanlari doktori, dotsent Jabborov Xo'jamurod filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darsalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «25» noyabr soat 10:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56; e-mail: jdpuinfo@umail.uz) Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o'quv bino, 2-qavat, ma'ruzalar zali).

Dissertatsiya avtoreferati bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin («6» raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «7» noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «7» 11 daqi 9 raqamli reyestr bayonnomasi).



U.A.Jumanazarov
davlat beruvchi ilmiy kengash
filologiya fanlari doktori, professor

Xadjimusayeva
ilmiy kengash
fanlari bo'yicha
dotsent

U.Qosimov
davlat beruvchi ilmiy kengash
darslarda ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarning lugʻaviy va nutqiy oʻziga xosligi, tizimliliği zamonaviy antropotsentrik yondashuv nuqtayi nazaridan lingvokognitiv, lingvopragmatik, lingvomadaniy, sotsiolingvistik kabi yangi konsepsiyalar asosida talqin etilmoqda. Milliy anʼanalar, qadriyat va urf-odatlarini tilda ifodalash, ularning lisoniy manzarasini yaratish, milliy-mental taffakkurni aks ettirish kabi masalalarning amaliy ahamiyati ortib bormoqda. Gastronomik frazeologik birliklarning mental ijtimoiy qiymatga ega til birligi sifatidagi imkoniyatlari, nutqda qoʻllanilishi hamda funksional-pragmatik va kognitiv xususiyatlarini lingvomadaniy talqin qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida sohaviy frazeologik birliklarning shakllanish omillari, tasnifi, lingvistik tabiati, lingvomadaniy xususiyatlarini leksik-semantik, pragmatik aspektida oʻrganishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Etnofrazeologizmlarni oʻrganish jarayoni obrazli asoslar va komponentlarning xalq turmushi tarzi bilan bogʻliqligini tavsiflash, semantik, pragmatik va lingvokulturologik kabi zamonaviy lingvistik metodlar orqali yondashishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan gastronomik frazeologik birliklarni olam lisoniy manzarasining lingvomadaniy inʼikosi sifatida semantik maydon doirasida oʻrganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi Oʻzbekiston oʻzining ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish davrini oʻtayotgan bir paytda oʻzbek tilshunosligi ham oʻz taraqqiyotida yangi sifat bosqichiga koʻtarilib bormoqda. Milliy tilimizning til unsurlari lingvokognitiv, lingvokulturologik, pragmatik tavsiflash kabi tilshunoslikning eng zamonaviy yoʻnalishlarida tadqiq etilmoqda, ularning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat oʻz milliy manfaatlarini taʼminlash, bu borada, avvalo, oʻz madaniyatini, azaliy qadryatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”¹. Shu maʼnoda oʻzbek tilli frazeologizmlarini, jumladan, gastronomik frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini antropotsentrik yondashuvlar asosida yoritish ilmiy-amaliy zarurat hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-son “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ–2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni. //lex.uz

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiyaning ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida frazeologiya masalalarini tizimli o‘rganish bo‘yicha keng miqyosda tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, V.Gumboldt², Fernand de Sossyur³, V.V.Vinogradov V.G.Gak, A.V.Kunin, V.N.Teliya⁴, kabi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida frazeologiya tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida e‘tirof etildi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklar nazariy, struktural-grammatik, semantik-uslubiy, funksional-pragmatik jihatdan tadqiq etish bo‘yicha qator doktorlik⁵, nomzodlik va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari⁶ himoya qilindi, ko‘plab ilmiy maqolalar e‘lon qilindi, monografiyalar va o‘quv qo‘llanmalari nashr etildi⁷, frazeologik lug‘atlar⁸ yuzaga keldi.

² Гумбольдт, фон В. Избранные труды по языкознанию [Текст] / В. Фон Гумбольдт. – М.: Прогресс, 1984. – С.498.; Гак В.Г. Особенности библейских фразеологизмов в русском языке (в сопоставлении с французскими библеизмами) // Вопросы языкознания, 1997. 5. – С.55-65.;

³ Соссюр Ф. де Заметки по общей лингвистике: Пер. с фр./Общ. ред., вступ ст. и коммент. Н.А. Слюсаревой. – М.: Издательская группа «Прогресс», 2001. – 28 с.

⁴ Виноградов В. В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины, в его кн.: Избр. труды, т. 3. – Москва, 1977; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1996.; Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996.;

⁵ Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари: Филол.фан.д-ри.дисс...автореф. –Тошкент, 1966 – 46 б.; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол.фан.д-ри.дисс...автореф. –Тошкент, 1993. –47 б.; Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол.фан.д-ри.дисс...автореф. –Тошкент, 1999. – 56 б.;

⁶Ҳакимов Қ. Ўзбек тилидаги содда гап қолипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанлиги: Филол.фан.номз.дисс...автореф. -Тошкент, 1994. -27 б.; Усмонова Ш. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол.фан.номз.дисс...автореф. -Тошкент, 1998. -24 б.; ; Бозорбоев К. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол.фан.номз.дисс...автореф. –Самарқанд, 2000. –22 б.; Алмаматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол.фан.номз.дисс...автореф. –Тошкент, 2008. -23 б.; Рашидова У. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (кўз, қўл ва юрак компонентли иборалар мисолида): Филол.фан.фалсафа д-ри (PhD) дисс...автореф. -Самарқанд, 2018. –51 б.

⁷ Рахматуллаев Ш. Нуткимиз кўрки.-Тошкент: Фан, 1970. -60 б.; Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари. –Самарқанд, СамДУ нашри, 2002. -37 б.; Маматов А. Фразеологик стилистика масалалари. - Тошкент, 1991. -120 б.; Ганиева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. -123 б.; Шомақсудов Ш., Долимов С. Қайроқи сўзлар : (халқ иборалари) / [Нашрга тайёрловчи Д.А.Шораҳмедов]. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011. –223 б.; Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. –Самарқанд: СамДУ нашри, 2007. – 108 б.; Маматов А.Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. -Тошкент, 1991. -274 б.; Рахматуллаев Ш. Ўзбек тили феъл

Sh.Raxmatullayev, A.Hojiyev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov, Sh.Usmonova, B.Jo‘rayeva, Sh.Almamatova, M.Vafojeva, U.Rashidova, B.Boltayeva, Sh.Ganiyeva, Z.Jumayeva kabi o‘zbek tilshunoslarining tadqiqotlarida frazeologik birliklarning leksik-grammatik, funksional-semantik xususiyatlari tadqiq etildi. Ushbu tadqiqotlar natijasi o‘laroq o‘zbek frazeologiyasining bahsli va munozarali jihatlariga aniqliklar kiritildi. Shu bilan birga o‘zbek tilidagi gastronomik frazeologizmlarning milliy urf-odat, an‘ana va ijtimoiy munosabatlarning ifodalanishini lingvomadaniy aspektida tadqiq qilish o‘z yechimini kutayotgan muammolardan hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari: til ta‘limida axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, raqobatbardosh professional pedagog kadrlarni tayyorlashga qaratilgan kompleks, integratsiyalashgan tadqiqotlar” mavzulari yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi – o‘zbek tilidagi gastronomik komponentga ega frazeologik birliklarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etish hamda ularning mazmunida xalqning turmush tarzi, madaniy qadriyatlari, urf-odatlarini, an‘analari va ijtimoiy munosabatlari qanday aks etishini ilmiy asosda yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

gastronomik komponentli frazeologik birliklarning frazeologiyaning o‘rganish obyekti sifatidagi xususiyatlarini aniqlash, rus tilshunosligida, o‘zbek tili tilshunosligida gastronomik iboralarning o‘rganilishini aniqlash;

o‘zbek tilida frazeologizmlarning gastronomik kodlarga ko‘ra tasnifini amalga oshirish: “Pazandalik san‘ati” leksik-semantik guruhi, “Hayvonot olamiga mansub mahsulotlar” leksik-semantik guruhi, “Oziq-ovqat va mahsulot nomlari” leksik-semantik guruhi doirasida tahlil qilish;

gastronomik frazeologizmlarning xalq tili tizimidagi ifoda imkoniyatlarini “Taom tayyorlash va uning iste‘moli” leksik-semantik guruhi, “Ta‘m qo‘shimchalari” leksik-semantik guruhi, “O‘zbek mehmondorchiligi” leksik-semantik guruhida ochib berish;

фраземаларнинг боғлашуви. –Тошкент, 1992; Йўлдошев Б., Рашидова У. Ўзбек тилининг фразеологик стилистикаси. –Тошкент: Наврўз, 2016. –198 б.; Йўлдошев Б., Рашидова У. Ўзбек фразеологияси. Библиографик кўрсаткич. –Тошкент: Наврўз, 2016. –48 б.

⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент, 1992. –132 б.; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент, 1978. –408 б.; Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1985. –134 б.; Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1984. –122 б.; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати. – Тошкент: Фан, 1964 – 36 б.; Ўзбек тили изоҳли луғати. 1-5-томлар. –Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008; Менглиев Б., Худойбердиева М, Бойматова О.Ўзбек тили ибораларининг ўқув изоҳли луғати. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. –39 б.

gastronomik frazeologizmlarni lingvomadaniy aspektida o'rganish, ularda xalqning turmush tarzi, milliy urf-odat, an'ana va ijtimoiy munosabatlarining ifodalanish darajasini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida frazeologizmning leksik-semantik guruhlari hamda o'zbek badiiy asarlaridagi gastronomik frazeologizmlar va o'zbek badiiy asarlaridagi iboralar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek tilidagi gastronomik frazeologizmlar va ularning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, semantik, sistem-struktural, lingvokulturologik qiyoslash, komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

gastronomik diskursda o'zbek tili frazeologik birliklarining lingvo-semiotik, lingvomadaniy xarakteri leksik-semantik va pragmatik aspektlarda qiyosiy tahlil qilinib, bu leksemalar rus tili konteksti misolida komparativistik yondashuv vositasida asoslab berilgan;

gastronomik komponentli frazemalar leksik-semantik klassifikatsiya qilinib, o'zbek tilida iboralarning lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika va intermadaniy kommunikatsiya sohalaridagi o'rni konseptual asosda mental va lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilgan;

frazeologizmlar semantikasida realiyalar o'zbek madaniyatning gastronomik obrazlari etalon sifatida ifodalanib, tilning madaniy va identifikatsion roli graduonimik, giponimik, paronimik munosabatlarda aks etganligi isbotlangan;

o'zbek tili gastronomik frazeologik elementlarining madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati, tarjima muammolari va lingvomadaniy kodlarni anglashdagi roli isbotlanib, sotsiopragmatik va kontekstual yondashuv asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiq etilayotgan gastronomik frazeologik birliklar – frazeologizmlarning semantik ma'nosi va pragmatik vazifasini aniqlash bo'yicha tahlil qilish va tavsiflash usullari ishlab chiqilgan;

dissertatsiya o'zbek tilidagi gastronomik frazeologik birliklarni leksik-semantik guruhlarda o'rganuvchilar uchun muhim manba bo'la olishi asoslangan hamda amaliy ahamiyat kasb etishi aniqlangan;

ishdagi ma'lumotlardan gastronomik frazeologik birliklarni lingvomadaniy o'rganishda, tillarni o'qitish amaliyotida, darslik yaratish va nazariy kurslarni tuzishda, bitiruv malakaviy ishlari yozishda, tarjimonlar amaliyotida, har xil turdagi lug'atlar tuzishda keng foydalanish mumkinligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tilshunoslikda qo'llanilayotgan tadqiq usullari asosida tadqiqot maqsadiga mos ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilganligi, gastronomik lingvomadaniy birliklarni izohlashda ishonchli nazariy manbalardan foydalanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gastronomik frazeologizmlarning lingvomadaniy aspektini o‘rganuvchi yondosh sohalaridagi ilmiy-nazariy muammolarni hal qilishda asos bo‘lib xizmat qilishi bilan hamda tilda aks etayotgan gastronomik iboralarga oid yangicha yondashuvlar mazkur sohaning zamonaviy nazariyalari bilan boyishiga asos bo‘lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan o‘zbek tilidagi gastronomik iboralarning lingvomadaniy tadqiqi bo‘yicha yaratilgan darslik, o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirishda, oliy o‘quv yurtlarining bakalavr va magistratura ta‘lim yo‘nalishlari uchun frazeologizmlarni lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tilida gastronomik frazeologik birliklarning lingvomadaniy tadqiqi mavzusidagi dissertatsiyaning ilmiy natijalaridan:

o‘zbek tili gastronomik komponentli frazeologik birliklarning shakllanish omillari, lingvistik tabiati, lingvomadaniy xususiyatlari leksik-semantik va pragmatik aspektda talqin qilinib, ularning milliy, tarixiy, ijtimoiy asoslari aniqlanganligi to‘g‘risidagi xulosalardan AM-FZ-201908172 “O‘zbek tilining ta‘limiy korpusini yaratish” nomli grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 25-oktabrdagi №04/1-3030-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan ishlarning yangi manbalar, ma‘lumotlar bilan boyishiga erishilgan;

o‘zbek tilida pazandalik *san‘ati bilan bog‘liq qo‘li shirin, mazasi og‘zida qolmoq* kabi, hayvonot dunyosi bilan bog‘liq *noma‘qul buzoqning go‘shini emog‘ singari, oziq-ovqat va mahsulot nomi bilan bog‘liq xamir uchidan patir, noni yarimta* kabi gastronomik frazeologik birliklar leksik-semantik guruhlarga ajratilib, ularning mental, lingvomadaniy xususiyatlari to‘g‘risidagi xulosalaridan PZ-202004165 “Umumiy o‘rta ta‘limning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 25-oktabrdagi №04/1-3031-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha nazarining nazariy qismining yangi manbalar bilan boyitilishiga erishilgan;

o‘zbek tilining *pichoq suyakka yetdi, quruq qoshiq og‘iz yirtar, qozon osmoq, nomi ulug‘, suprasi quruq* kabi frazeologik birliklari semantikasida “pichoq, qozon, surpa, elak” so‘z realiyalari hisobiga madaniyatning oshxona anjomlari va asboblari obrazlari etalon sifatida namoyon bo‘lganligi, ularda o‘zbek xalqi turmush tarziga xos milliy-madaniy belgilarning aks etganligi to‘g‘risidagi xulosalaridan 60111800 – Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan “Talabalar uchun yozish amaliyoti” nomli darslikda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-195-son guvohnomasi). Natijada ushbu darslikning

gastronomik frazeologizmlar haqidagi ma'lumotlar, misollar, xulosalar bilan boyitilishiga erishilgan;

o'zbek tilidagi *kelinning qo'ldan choy ichmoq, non sindirmoq, non tishladi, ataladan suyak chiqibdi, patir ushatish, surpa ochdi, surpa qoqdi, to'qqiz tovoq, qozon to'ldi* kabi gastronomik frazeologik birliklarning lingvomadaniy kodini aniqlash orqali xalqning urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini, ijtimoiy munosabatlarining ifodalanish darajasi haqidagi xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Ma'daniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Adabiy jarayon", "Jahon adabiyoti" dasturlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan ("O'zbekiston telekanali davlat muassasasi"ning 2024-yil 25-oktabrdagi №04-36-1140-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu dasturlarning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan va yangi ma'lumotlar bilan takomillashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish nashr ettirilgan, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, jumladan, 5 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Gastronomik frazeologizmlarni lingvomadaniy aspektida o'rganish muammolari**" deb nomlangan birinchi bobida jahon tilshunosligida, o'zbek tilshunosligida frazeologiyaning shakllanishi va taraqqiyoti hamda ayrim nazariy masalalari, ilmiy tadqiqotlar tavsifi tahlil qilingan. Mazkur bobda frazeologizmlarni lingvomadaniy aspektida o'rganilishi ilmiy fikrlar bilan to'ldirilgan.

Ishning birinchi fasli "*Gastronomik komponentli frazeologik birliklar frazeologiyaning o'rganish obyekti sifatida*" deb nomlangan. Ushbu faslda gastronomik frazeologik birliklarni o'rganish jamiyatning kundalik turmushidagi "taom" konponentini anglashga imkon beradi.

Amerikalik olimlar Devid va K.Jonatanlar ovqat haqidagi tasavvurlar adabiyotda biror millat xotirasining negizigacha singib ketgan assotsiatsiyalar manbasi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin deydi⁹.

Rus olimi A.I.Kozlov oshxona va taom – “o‘zingniki”ni “o‘zga”dan farqlash, “ular” va “o‘zimiz” orasidagi chegarani aniqlab olish vositasidir¹⁰ degan fikrni bildirgan.

V.G.Den va N.A.Koplyonova: “Gastronomiya” leksemasi taqdim etilgan lug‘at ta’riflarini tahlil qilsak, ma’noning quyidagi takrorlanuvchi komponentlarini aniqlashimiz mumkin: 1) yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat; 2) oshpazlik san’at, pazandachilik; 3) iste’mol qilinadigan go’sht va sut mahsulotlari (odatda, iste’mol qilishga tayyor); 4) bunday mahsulotlarni sotadigan do‘kondagi bo‘lim; 5) xizmat ko‘rsatadigan tamaddixonalar, restoranlar; 6) oshxona bilan bog‘liq barcha bilimlar, inson ovqatlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ketma-ketlik; 7) tanovvul uchun nozik did. Shunday qilib, “gastronomiya” leksik va frazeologik sathi katta hajmli lingvistik birliklar qatlamini o‘z ichiga oladi, ularning dastlabki uchta guruhini uning yadrosi tashkil qiladi, to‘rtinchi va beshinchi – birinchi periferiya, oltinchi va yettinchi – ikkinchi periferiyani tashkil qiladi. Biroq berilgan elementlarning hammasi ham gastronomik kodni shakllantirishda ishtirok etmaydi¹¹, deb tahlil qilishgan.

Kara Killing va Skott Pollardning ta’kidlashicha¹², agar taom madaniyat hamda sivilizatsiyaning tayanch nuqtasi sanalsa, demak, adabiyotdagi substantsiya, ya’ni adabiyotshunoslik uchun ham fundamental tadqiqot manbayi hisoblanishi, oziq-ovqat mahsulotlari har bir madaniyatning ajralmas qismi ekanligi haqida fikr bildirgan.

V.G.Den va N.A.Konoplyovaning maqolasida “gastronomiya” va “kulinariya”ning farqlanish modelini keltiradi va izohlaydi¹³.

“Tilning frazeologik fondi xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi eng qimmatli manbadir, unda xalqning afsonalari, urf-odatlar, marosimlari, bayramlari, odob-axloqi va hokazolar mujassamlashgan”, – deb yozadi V.A. Maslova¹⁴.

F.Usmonovning o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotida o‘zbek xalqining obrazli tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi, qadriyatlar, fe’l-atvori, e’tiqod va an’analari lingvomadaniy kodlarda yaqqol o‘z ifodasini topadi, deb alohida masalaga e’tibor qaratadi¹⁵.

⁹ David, Jonathan C. Food in Literature. Gale Encyclopedia of Food&Culture.2003.

¹⁰ Козлов А.И. Пища людей. – Фрязино: Век 2, 2005

¹¹ Ден В.Г., Коноплева Н.А. Гастрономическая культура Дальневосточного региона как предмет истории повседневности // Гуманитарный вектор, 2019. –Т. 14. –№4. – С. 151.

¹²Keeling, Kara K. and Scott T. Pollard. “Introduction: Food in Children’s Literature.” Critical Approaches to Food in Children’s Literature. Ed. Kara K. Keeling and Scott T. Pollard. –New York: Routledge, 2009.

¹³ Ден В.Г., Коноплева Н.А. Гастрономическая культура Дальневосточного региона как предмет истории повседневности // Гуманитарный вектор, 2019. –Т.14. –№4. – С. 90.

¹⁴ Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – С. 154.

¹⁵ Usmonov F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. –Andijon, 2019. – B. 25-28.

D.Xudoyberganova madaniyat kodini insoniyatning asl nusxada tasavvurlariga muvofiq keluvchi, o'zida olam haqidagi tasavvurlarni namoyon etuvchi tushunchalar va ularning lisoniy shakllari sifatida ta'riflaydi¹⁶.

Bobning *“Jahon va rus tishunosligida gastronomik frazeologizmlarning o'rganilishi”* deb nomlangan ikkinchi faslida tilshunoslik sohasida frazeologizmlarni olimlar tomonidan tadqiq etish yo'li va usullari o'rganilgan.

Frazeologik birliklarning milliy-madaniy o'ziga xosligi masalasini hal qilishda shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda frazeologik materialning qamrovi va frazeologik birliklarning milliy-madaniy tarkibini aniqlashda turlicha yondashuvlar mavjud. Bu yerda ham individual, ham jamoaviy dunyoqarashdagi frazeologizmlar muhim o'rin tutadi. Tilshunoslik sohasida frazeologizmlarni mustaqil tadqiq etish yo'lidagi dastlabki qadamni fransuz tilshunosi Sharl Ball, keyinroq rus tilshunoslari B.A.Larrin, A.V.Kunin, V.V.Kuninlar qo'yishgan. V.Vinogradov, N.N.Amosova bu sohaga chuqur yondashgan¹⁷.

A.E.Mamatovning fikricha, milliy-madaniy xususiyatga ega frazeologizmlarning shakllanishida gastronomik frazeologiyalar alohida o'rin tutadi. Insoniyat bu dunyoga kelibdiki, hayotini oziq-ovqatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Demak, gastronomik frazeologizmlar tarixi insoniyatning ongli hayotidan boshlanadi. Gastronomik frazeologizmlarning shakllanishi har bir tilda o'z o'rniga ega. Avvalo, shuni qayd etish lozimki, oziq-ovqat bilan aloqador xilma-xil lisoniy assotsiatsiyalar shu kasb-kor egalarining ish jarayoni, qolaversa, ular tomonidan tayyorlangan taomlarning u yoki bu xususiyatlari muayyan obrazlarning shakllanishiga asos bo'lgan. Mana shu obrazlikka bog'liq holda ko'plab frazeologizmlar shakllangan¹⁸.

Y.V.Kapelyushnik *“Еда”* obrazli leksik-frazeologik maydonini kompleks misollar asosida o'rganadi hamda olamni modellashtirishning boshqa kontseptual sferalar uchun metaforik nominatsiya manbayi sifatida¹⁹dagi qarashlari izohlangan.

Alxaidri Basim Xasan Xrebit esa rus tilidagi *“ovqatlanish”* konseptosferasini 8 guruhga bo'lib o'rganadi²⁰.

A.V.Baldova rus tilining obrazli leksikasi va frazeologiyasi, oziq-ovqat mahsulotlari, pazandachilik taomlari va mahsulotlar, ichimliklar, idishlar, anjomlar va gastronomik buyumlarning *“Bir narsa – bu oziq-ovqat \ \ Нечто – это Еда”* (oziq-ovqat metaforasi) kognitiv metaforik modelini tahlil qiladi²¹.

Li Chi maqolasida olamning rus lisoniy manzarasida gastronomik kod tushunchasi haqida fikr bildirib, shunday deydi: *“Har bir milliy madaniyatning*

¹⁶ Худойберганова Д. Лингвокультурологияда маданий код тушунчаси ва талқини//Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2019. – № 3. – Б. 23.

¹⁷ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 2000.

¹⁸ Mamatov A.E. Ozbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. –Toshkent: O'zbekiston, 1997, –47-bet.

¹⁹ Капельюшник Е.В. Кулинарный код культуры в семантике образных средств языка: Автореф. дисс...канд.филол. наук. –Томск, 2012. – С. 22.

²⁰ Алхайдри Басим Хасан Хребит. Кулинарно-гастрономическая субстантивная лексика в образном употреблении: Автореф. дисс...канд.филол. наук. –Воронеж, 2013. –С. 24.

²¹ Балдова А.В. Миромоделирующая и аксиологическая функции пищевой метафоры в русском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Томск, 2016. –С.30.

tilidagi tasvirlar va belgilari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, til tashuvchilari ongida mustahkamlanib, saqlanib boradi va kodlar tizimini tashkil qiladi²².

Bobning "O'zbek tili frazeologik tizimida gastronomik iboralarning o'rganilishi" nomli faslida tilning madaniy va milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi, keng tarqalgan frazeologik birliklar o'rganiladi.

N.N.Amosova o'zining doktorlik ishida frazeologizmlar tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ularning ma'nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashishi va frazeologizmlarning bir necha turlarini farqlagan²³.

A.Mamatov doktorlik dissertasiyasida gastronomik frazeologizmlarga oid quyidagi fikrlar keltiriladi: "Pazandachilik doirasida shakllangan frazeologizmlar. O'zbek tilining leksik tarkibida pazandachilikka oid so'zlar o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ta'kidlash joizki, pazandachilik bilan aloqador xilma-xil lisoniy assosiativlar shu kasb egalarining ish jarayoni, muayyan obrazlarning shakllanishiga asos bo'ladi. Masalan, "zuvalasi pishiq" frazeologizmi xamir qorish bilan bog'liq voqelikni obrazli ifodalash asosida shakllanadi"²⁴.

D.Niyozmetovanning maqolasi ingliz va o'zbek tili frazeologiyasida oziq-ovqat nomlari bilan bog'liq an'analarning va xalq mentalitetining aks etishini yoritib berishga bag'ishlangan bo'lib, unda "Mehnatning noni – shirin, o'g'ring joni – shirin" kabi frazeologizmlari ham keng qo'llaniladi²⁵, deb fikrni bildirgan.

O.K.Xolibekova ilmiy ishida fitonim komponentli frazeologik birliklar haqida mulohaza yuritganda, gastronomik leksikaga ham to'xtalib o'tadi²⁶.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**O'zbek tilida frazeologizmlarning gastronomik kodlarga ko'ra tasnifi**" deb nomlangan.

Bobning "Pazandalik san'ati leksik-semantik guruhi" nomli birinchi faslida "Ovqatlanish madaniyati" leksik-semantik guruhi va "Oshxona anjomlari va asboblari" leksik-semantik guruhlari o'rganilgan.

Gastronomik frazeologik variantlar lingvomadaniy tahlil qilingan. Pichoq gastronomik kodi: *pichoq tortmoq (yoki qo'ymoq), pichoqqa ilinmaydi, pichog'i keskir, pichog'i moy ustida, o'tmas pichoq bilan so'ymoq*; Qozon gastronomik kodi: *qozon osmoq, qozon qaynatmoq, qozonni suvga tashlamoq, tikilgan qozon qaynamas*; Elak gastronomik kodi: *og'ziga elak tutmoq, el og'ziga elak tutib bo'lma(ydi), elak bo'lmaslik, elakdan o'tkazmoq, elak-elak qilmoq, g'alvir qilmoq, g'alvirdan o'tkazmoq, g'alvirni suvdan ko'tarmoq, sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga*; Dasturxon gastronomik kodi: *dasturxonga o'tirmoq, dasturxonga qaramoq (yoki qarab o'tirmoq), dasturxon yemoq, dasturxon qilmoq*; Qoshiq

²² Ли Чи Объем понятия гастрономический код в русской языковой картине мира // Филология. DOI 10.37882/2223-2982.2022.01-2.18. – С. 148-154.

²³ Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии: Дисс. докт. филол.наук. – Ленинград, 1961.

²⁴ Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. DDA. – Toshkent, 2000. – B.21.

²⁵ Niyazmetova D.D. Ingliz va o'zbek tillari frazeologiyasida oziq-ovqat bilan bog'liq an'analarning va xalq mentalitetining aks etishi // Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi. №6/4. 2023. – B.112.

²⁶ Xolibekov O.K. O'zbek va ingliz tillarida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik-struktur tadqiqi. Filol. fan. fals. doktr. (PhD). – Samarqand, 2022. – 134 B.

gastronomik kodlari: *bir qoshiq suv bilan yut(ib yubor)guday, bir qoshiq qon(i)dan o'tmoq, yuvilmagan qoshiq* kabi frazemalar bilan ifoda etilgan.

Frazeologizmlar tuzilishi jihatidan birikmaga va gapga teng qurilishli, leksik-grammatik guruhlanishga ko'ra, ot, sifat, fe'l, ravish frazeologizmlar bo'ladi. Masalan: a) birikmaga teng qurilishli: “*qozonni suvga tashlamoq*”, “*qozon osmoq*”, “*qirq qozonning qulog'ini tishlamoq*”, “*kulini o'z ko'machiga tortmoq*”, “*bir zuvala xamir istasa, kulcha, istasa patir qilmoq*”, “*maslahat oshi qilmoq*”, “*tayyor oshga qoshiq solmoq*”, “*urvoq ham bo'lmaslik*”, “*surpadagi unga qaramay, tandirga o't qalamoq*”, “*taxta-o'qlog'ini yig'ishtirmoq*” kabi; b) gapga teng qurilishli: “*qozoni osiqsiz qoldi*”, “*qozoni qaynab turibdi*”, “*damida osh pishadi*”, “*yopiqlik qozon yopiqligicha qoldi*”, “*yog'i chiqadimi*”, “*sho'rva to'kildi*” kabi fe'l frazeologizmlar, shuningdek, “*dasturxonni ochiq*”, “*zuvalasi pishiq*” kabi sifat frazeologizmlar; “*xamirdan qil sug'urganday*” kabi ravish frazeologizmlar shakllanadi²⁷.

Ishning “*Hayvonot olamiga mansub mahsulotlar leksik-semantik guruhi*” nomli ikkinchi faslida iboralarni lingvomadaniy konseptual asoslarda o'rganish narsa va hodisalarning muhim belgilarini ajratish, borliqning lisoniy manzarasini yaratishdagi ahamiyati ifoda etilgan.

“*Sut mahsulotlari*” leksik-semantik guruhi, “*Go'sht, go'shtdan tayyorlanadigan mahsulotlar va yarim tayyor mahsulotlar*” leksik-semantik guruhlari o'rganilgan.

Sut gastronomik kodi: *ona sutidek pok (halol), sutdek oq, buzoqning haqi bor deb sigirning sutini ichmaslik, ona suti og'zidan ketmagan, sut tishi, sut puli yoki qalin, sutsiz sigir suzag'on bo'ladi, ona suti og'ziga keldi, oq sutini oqqa, ko'k sutini ko'kka sog'moq, sut bilan kirgan jon bilan chiqadi, ona suti og'zidan ketmagan – ona suti og'zida, sut bilan kirgan jon bilan chiqadi – oq sut bilan kirsa, taka bo'lsin, suti bo'lsin (bersin), miyaning qatig'i, moshxo'rdaga qatig bo'lmoq, oftobda qatig ichishgan, osh-qatig bo'lmoq*; Baliq kodi: *baliqning tirikligi suv bilan; baliq boshidan sasiydi*; Tovuq kodi: *bir tovuqqa ham suv kerak, ham don kerak; dumi yulingan tovuqdek; oyog'i kuygan tovuqday; tovuq miya*; Tuxum kodi: *tuxum bostirmoq; tuxumdan chiqmoq*; Bedana kodi: *bedana yurish; bedananing uyi yo'q, qayerga borsa bit-bildiq* kabi frazemalar bilan ifoda etilgan.

“*Oziq-ovqat va mahsulot nomlari leksik-semantik guruhi*” deb nomlangan faslda “*Unli mahsulotlar*”, “*Don mahsulotlari*”, “*Meva-cheva, sabzavot mahsulotlari*”, “*Shirinliklar*”, “*Sho'rva*” kabi mikrogrupplarga bo'linib ketadi.

Xamir gastronomik kodi: *xamirdan qil sug'urganday; xamir (ning) uchidan patir, zuvalasi pishiq*; Non gastronomik kodi: *non-namak, non-tuz, non-nasiba, non-namak bo'lmoq, noni yarimta, non ursin, nonini tuya qilmoq, non gadoyi, non asli don, non-choy*; Talqon gastronomik kodi: *og'ziga talqon solmoq, tog'ni talqon qiladigan – tog'ni ursa talqon qiladigan*; Chuchvara gastronomik kodi: *chuchvarani xom sanamoq*; Lag'mon gastronomik kodi: *qulog'iga lag'mon*

²⁷ Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. – Тошкент, 2000. – Б.21.

osmoq; Mosh gastronomik kodi: *ko'zini moshday ochib qo'ymoq, mosh yegan xo'rozday*, Osh (palov) gastronomik kodi: *yurtga osh bermoq // tortmoq, osh bo'lsin, og'zi oshga yetdi, osh-qatiq, oshing halol bo'lsa, ko'chada ich*; Shira gastronomik kodi: *shira tortmoq (mevalarda), shira (ovqatlarda), shira (ovozda)*; Bol gastronomik kodi: *og'zidan bol tomadi*; Olma gastronomik kodi: *ko'z(lar)i olma-kesak teradi*; Yong'oq gastronomik kodi: *qo'y'nini puch yong'oqqa to'ldirmoq, bir qop yong'oq, boshida (yoki miyasida) danak chaqmoq // Boshida yong'oq (yoki tosh) chaqmoq*; Mayiz // mag'iz gastronomik kodi: *gapning mag'zini chaqmoq, Bir mayizni qirq bo'lib yemoq*; Sabzavot gastronomik kodi: *piyoz po'stiday yupqa, yetti qovun pishig'i* kabi frazemalar bilan ifoda etilgan.

